- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallari va qo'llanmalar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma'ruza matnnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati*: mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e'tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me'zonlari;

- *Talabalar faoliyati*: ishning tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Vektor koordinatalari.
2. Vektoring uzunligi.
3. Vektoring o'qqa proeksiyasi.
4. Yo'naltiruvchi kosinuslar.

Kalit so'zlar: Vektor, vektoring moduli, yo'naltiruvchi kosinuslar.

1.3.1. Ma`ruza matni

$\vec{a} = \vec{AB}$ vektoring yo'naltirilgan L to'g'ri chiziqqa *proektsiyasi* deb, shu to'g'ri chiziqdagi $\vec{A'B'}$ yo'naltirilgan kesmaning A' B' kattaligiga aytildi, bu erda A' va B' mos ravishda A va B nuqtalarning L chiziqqa proektsiyalaridir. Proektsiya $np_L a$ kabi belgilanadi. L to'g'ri chiziqqa a vektoring proektsiyasi a vektor uzunligi bilan a vektor L to'g'ri chiziq bilan tashkil qilgan φ burchak kosinusi ko'paytmasiga teng, ya'ni.

$$pr_L a = |a| \cdot \cos \varphi. \quad (5.1)$$

To'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasi ortogonal va birlik i, j, k bazis vektorlarga ega bo'lган affin sistemaning xususiy holidir.

Ixtiyoriy a vektor yagona ravishda to'g'ri burchakli dekart i, j, k bazis bo'yicha yoyilishi mumkin, ya'ni har qanday a vektor uchun yagona x, y, z sonlar topiladiki, quyidagi tenglik o'rinali bo'ladi:

$$a = xi + yj + zk \quad yoki \quad a = \{x; y; z\}. \quad (5.2)$$

x, y, z sonlar a vektoring to'g'ri burchakli dekart koordinatalari yoki komponentalari deb ataladi va ular shu vektoring mos ravishda Ox, Oy, Oz o'qlaridagi proektsiyalariga teng.

a vektor Ox, Ou va Oz o'qlari bilan tashkil qilgan burchaklarni mos ravishda α, β va γ lar bilan belgilaymiz.

$\cos \alpha, \cos \beta$ va $\cos \gamma$ sonlar a vektoring yo'naltiruvchi kosinuslari deyiladi. Ko'rinish turibdiki,

$$x = |a| \cos \alpha, y = |a| \cos \beta, z = |a| \cos \gamma. \quad (5.3)$$

To'g'ri burchakli parallelepiped dioganalining kvadrati uning tomonlari kvadratlarining yig'indisiga teng bo'lганligi uchun $OA=x, OB=y, OC=z$ tengliklardan a vektoring uzunligi uchun quyidagi formula kelib chiqadi:

$$|a| = \sqrt{x^2 + y^2 + z^2}. \quad (5.4)$$

a vektor yo'naltiruvchi kosinuslarining shu vektoring koordinatalari orqali ifodalari (5.3) va (5.4) formulalardan kelib chiqadi:

$$\cos \alpha = \frac{x}{\sqrt{x^2 + y^2 + z^2}}, \quad \cos \beta = \frac{y}{\sqrt{x^2 + y^2 + z^2}}, \quad \cos \gamma = \frac{z}{\sqrt{x^2 + y^2 + z^2}} \quad (5.5)$$

Bu erdan quyidagi tenglik o'rinali bo'lishi ko'rinish turibdi:

$$\cos^2 \alpha + \cos^2 \beta + \cos^2 \gamma = 1. \quad (5.6)$$

Misol. $\bar{a} = (12; -15; -16)$ vektorning yo'naltiruvchi kosinuslarini aniqlang.

Echish: $|\bar{a}| = \sqrt{(12^2 + (-15)^2 + (-16)^2)} = \sqrt{144 + 225 + 256} = 25$. Endi $x=12$; $y=-15$; $z=-16$ ekanligini e'tiborga olib yo'naltiruvchi kosinusrarni aniqlaymiz.

$$\cos \alpha = \frac{12}{25}; \cos \beta = -\frac{15}{25} = -\frac{3}{5}; \cos \gamma = -\frac{16}{25}$$

Vektor tushunchasi. Vektoring uzunligi. O'zlarining son qiymati va yo'nalishi bilan aniqlanadigan miqdorlar vektorlar deb ataladi. $M_1(x_1, y_1, z_1)$ va $M_2(x_2, y_2, z_2)$ nuqtalar mos ravishda \bar{a} vektoring boshi va oxiri bo'lzin. U holda \bar{a} vektoring koordinatalari quyidagicha aniqlanadi.

$$\bar{a} = \overline{M_1 M_2} = (x_2 - x_1, y_2 - y_1, z_2 - z_1)$$

\bar{a} vektoring uzunligiga teng bo'lgan son uning moduli deyiladi va quyidagicha aniqlanadi.

$$|\bar{a}| = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2}$$

Agar \bar{a} vektor koordinata o'qlari bilan mos ravishda α, β va γ burchaklar hosil qilsa, u holda $\cos \alpha, \cos \beta$ va $\cos \gamma$, \bar{a} vektoring yo'naltiruvchi kosinusrarni deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$\cos \alpha = \frac{X}{|\bar{a}|}; \cos \beta = \frac{Y}{|\bar{a}|}; \cos \gamma = \frac{Z}{|\bar{a}|}$$

Bu erda: $X = x_2 - x_1, Y = y_2 - y_1, Z = z_2 - z_1$

Vektoring o'qqa proektsiyasi. \bar{a} vektoring U o'qqa proektsiyasi, uning moduli va U o'q bilan tashkil qilgan burchagi φ orqali quyidagicha aniqlanadi. $np_U \bar{a} = |\bar{a}| \cos \varphi$

Ixtiyoriy \bar{a} vektoring berilgan koordinatalar sistemasiga proektsiyasini X,Y,Z orqali belgilaylik. U holda $\bar{a} = X, Y, Z$ va $|\bar{a}| = \sqrt{X^2 + Y^2 + Z^2}$ bo'ladi.

1-Misol. $\bar{a} = (6; 3; -2)$ vektoring modulini toping.

Echish: Modulni topish formulasiga asosan $|\bar{a}| = \sqrt{6^2 + 3^2 + (-2)^2} = \sqrt{36 + 9 + 4} = \sqrt{49} = 7$

2-Misol. A(3;-1;2) va V(-1;2;1) nuqtalar berilgan. \overline{AB} vektoring koordinatalarini toping.

Echish: \overline{AB} vektoring koordinatalarini topish uchun mos ravishda V nuqtanin koordinatalaridan A nuqtaning koordinatalarini ayiramiz. $\overline{AB} = (-1-3; 2-(-1); 1-2) = (-4; 3; -1)$

3-Misol. $\bar{a} = (12; -15; -16)$ vektoring yo'naltiruvchi kosinuslarini aniqlang.

Echish: $|\bar{a}| = \sqrt{(12^2 + (-15)^2 + (-16)^2)} = \sqrt{144 + 225 + 256} = 25$. Endi $x=12$; $y=-15$; $z=-16$ ekanligini e'tiborga olib yo'naltiruvchi kosinusrarni aniqlaymiz.

$$\cos \alpha = \frac{12}{25}; \cos \beta = -\frac{15}{25} = -\frac{3}{5}; \cos \gamma = -\frac{16}{25}$$

Vektorlar ustida amallar.

Vektorlarni qo'shish va ayirish: Agar \bar{a} va \bar{b} vektorlar koordinatalari berilgan bo'lsa, ya'ni $\bar{a} = (x_1, y_1, z_1)$ va $\bar{b} = (x_2, y_2, z_2)$ u holda

$$\bar{a} + \bar{b} = (x_1 + x_2; y_1 + y_2; z_1 + z_2), \quad \bar{a} - \bar{b} = (x_1 - x_2; y_1 - y_2; z_1 - z_2)$$

Vektorlarni songa ko'paytirish. Agar $\bar{a} = (x_1, y_1, z_1)$ bo'lsa, u holda har qanday a son uchun quyidagi formula o'rini $\alpha \bar{a} = (\alpha x_1, \alpha y_1, \alpha z_1)$.

Vektorlarning kolleniarlik sharti. Bir to'g'ri chiziqda yoki parallel to'g'ri chiziqlarda yotuvchi vektorlar kolleniar vektorlar deb ataladi. $\bar{a}=(x_1, y_1, z_1)$ va $\bar{b}=(x_2, y_2, z_2)$ vektorlarning kolleniarlik sharti quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{x_2}{x_1} = \frac{y_2}{y_1} = \frac{z_2}{z_1}$$

Vektorlarni bazis koordinatalari bo'yicha yoyish. $\bar{i}, \bar{j}, \bar{k}$ uchlik vektorlar bazis koordinatalari deyiladi, agar quyidagi uchta shart bajarilsa,

1) \bar{i} vektor OX o'qida, \bar{j} vektor OY o'qida, \bar{k} vektor OZ o'qida yotadi.

2) har bir $\bar{i}, \bar{j}, \bar{k}$ vektorlar o'z o'qlarida musbat tomoniga yo'nalgan bo'ladi.

3) $\bar{i}, \bar{j}, \bar{k}$ vektorlar, birlik vektorlar, ya'ni $|\bar{i}|=1; |\bar{j}|=1, |\bar{k}|=1$

\bar{a} vektor qanday bo'lishidan qat'iy nazar uni har doim $\bar{i}, \bar{j}, \bar{k}$ bazislar bo'yicha yoyish mumkin, ya'ni $\bar{a}=x_1\bar{i}+y_1\bar{j}+z_1\bar{k}$. Bu erda x_1, y_1, z_1 - \bar{a} vektorning koordinatalari.

4-Misol. $\bar{a}=\bar{i}+3\bar{j}-\bar{k}$ va $\bar{b}=2\bar{i}+\bar{j}+4\bar{k}$ vektorlar berilgan $2\bar{a}+3\bar{b}$ vektorlar yig'indisini toping.

Echish: \bar{a} koordinatalari, $\bar{a}=(1;3;-2)$ xuddi shuningdek $\bar{b}=(2;1;4)$. Endi $2\bar{a}$ va $3\bar{b}$. Vektorlarni aniqlaymiz. $2\bar{a}=(2; 6; -2); 3\bar{b}=(6; 3; 12)$. Demak, $2\bar{a}+3\bar{b}=(2+6; 6+3; -2+12)=(8; 9; 10)$.

5-Misol. $\bar{a}=(4,2,0)$ vektorni $\bar{p}=(1,-1,2), \bar{q}=(2,2,-1)$ va $\bar{r}=(3,7,-7)$ vektorlar bo'yicha yoying.

Echish. \bar{a} vektorni \bar{p}, \bar{q} va \bar{r} vektorlar bo'yicha yoyish, \bar{a} vektorni chiziqli kombinatsiya ko'rinishida ifodalash demakdir. $\bar{a}=c_1\bar{p}+c_2\bar{q}+c_3\bar{r}$, bu erda c_1, c_2 va c_3 - topilishi kerak bo'lgan sonlar.

Koordinata ko'rinishida bu quyidagicha bo'ladi.

$$4i+2j+0\cdot k=(c_1+2c_2+3c_3)i+(-c_1+2c_2+7c_3)j+(2c_1-c_2-7c_3)k$$

Natijada quyidagi tenglamalar tizimini hosil qilamiz.

$$\begin{cases} c_1 + 2c_2 + 3c_3 = 4 \\ -c_1 + 2c_2 + 7c_3 = 2 \\ 2c_1 - c_2 - 7c_3 = 0 \end{cases}$$

Buni ehib, $c_1=3; c_2=-1; c_3=1$ ekanligini topamiz. Demak, $\bar{a}=3\bar{p}-\bar{q}+\bar{r}$.

6-Misol. $\bar{a}=(6;-2;-3)$ vektorning birlik vektorini toping.

Echish: Birlik vektorni quyidagicha yozish mumkin.

$$\bar{a}^0 = \bar{i} \cos \alpha + \bar{j} \cos \beta + \bar{k} \cos \gamma$$

Endi $\cos \alpha, \cos \beta, \cos \gamma$ larni topamiz

$$\cos \alpha = \frac{\bar{a}_x}{|\bar{a}|}; \cos \beta = \frac{\bar{a}_y}{|\bar{a}|}; \cos \gamma = \frac{\bar{a}_z}{|\bar{a}|}$$

$|\bar{a}| = \sqrt{(6^2 + (-2)^2 + (-3)^2)} = \sqrt{49} = 7$ bo'lgani uchun. Bundan $\cos \alpha = 6/7; \cos \beta = -2/7; \cos \gamma = -3/7$

ga ega bo'lamiz. Demak, $\bar{a}^0 = (\frac{6}{7}; -\frac{2}{7}; -\frac{3}{7})$.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

7. Koordinatalari bilan berilgan vektorlar ustida chiziqli amallar?
8. Vektorlarning moduli deganda nimani tushinasiz?
9. Vektorlarning yo'naltiruvchi kosinuslari?

1.3.2-6. Blits-so'rov uchun savollar

15. Koordinatalari bilan berilgan vektorlarni qo'shish va ayirish qanday amalga oshiriladi?
16. Koordinatalari bilan berilgan vektorlarning yo'naltiruvchi kosinuslarini qanday topamiz?
17. Koordinatalari bilan berilgan vektorlarning uzunligini qanday hisoblash kerak?
18. Vektorlarning o'qqa proeksiyasi.

1.3.2-в. Og'zaki so'rov uchun savollar

19. Muletcik numa?
20. Yo'naltiruvchi kesma.
21. Ikki vektoring yigindisini topishning qanday usullarini bilasiz?
22. Vektorlarning o'qqa va to'g'ri chiziqga proeksiyasi.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar:* takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish:* yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdagi ishlar:* muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Ilin V.A., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. – M: Nauka, 1998.
2. Kletenik D.V., Sbornik zadach po analiticheskoy geometrii.-M.: GITTL. 1986.
3. A.R.Artikov. Analitik geometriya. Uslubiy qo'llanma. Samarqand 2006.

1. Bugrov Y.A.S., Nikolskiy S.M. Elementy lineynoy algebry i analiticheskoy geometrii. – M: Nauka, 1980.
2. Suberbiller O.N. Zadachi i uprajneniya po analiticheskoy geometrii.- M: 1931.
3. Gyunter N.M. i Kuzmin R.O. Sbornik zadach po visshey matematike. – M: 1958.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'yagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «←» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki to'g'ri deb o'yaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma'lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirot etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 6. Vektorlarning skaliyar ko'paytmasi. Chap va o'ng sistemalar. Vektorlarning vektor ko'paytmasi va aralash ko'paytmasi.

Ma'ruzaga reja-topshiriqlar

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

- 13. Vektorning skaliyar ko'paytmasi.
- 14. Vektorning vektor ko'paytmasi.
- 15. Vektorlarning aralash ko'paytmasi.
- 16. Chap va o'ng sistemalar.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, Vektorlar va ularning keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi:* talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Analitik geometriyaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi:* kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariiga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Vektorlar nazariyasini Analitik geometriya kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qitish usullari:* instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari:* frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari:* Ma`ruza matni; jadvallar, multymediya;
- *O'qitish sharoitlari:* texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring:* o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini hamda baholash shakli va muddatlari aytildi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakerlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;

- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralar bilan ishlay olishligi;

• 1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi

• 1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallari); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriylar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallari va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi;; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati*: mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e'tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me'zonlari;
- *Talabalar faoliyati*: ishning tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishslash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Vektoring skaliyar ko'paytmasi.
2. Vektoring vektor ko'paytmasi.
3. Vektorlarning aralash ko'paytmasi.
4. Chap va o'ng sistemalar.

Kalit so'zlar: Vektor, skalyar ko'patma, vektor ko'paytma, aralash ko'paytma, chap va o'ng sistemalar

1.3.1. Ma`ruza matni

Bizga biror **a** va **b** vektorlar berilgan bo'lsin. Biz bu mavzuda avvalo bu vektorlarning skaliyar ko'paytmasi bilan tanishib chiqamiz.

Ikki vektorning *skalyar* ko'paytmasi deb, shu vektorlar uzunliklari bilan ular orasidagi φ burchak kosinusining ko'paytmasiga teng bo'lган songa aytildi, ya'ni

$$\mathbf{ab} = |\mathbf{a}| \cdot |\mathbf{b}| \cdot \cos \varphi. \quad (6.1)$$

$np_a b = |b| \cos \varphi$ va $np_b a = |a| \cos \varphi$ tengliklardan skalyar ko'paytma uchun quyidagi tengliklar o'rini:

$$\mathbf{a} \cdot \mathbf{b} = |\mathbf{a}| \operatorname{pr}_{\mathbf{a}} \mathbf{b} = |\mathbf{b}| \cdot \operatorname{pr}_{\mathbf{b}} \mathbf{a}. \quad (6.2)$$

Ikki vektor ortogonalligi (perpendikularligi)ning etarli va zaruriy sharti shu vektorlar skalyar ko'paytmasining nolga tengligidir. Ikki \mathbf{a} va \mathbf{v} nolmas vektorlar agar ularning skalyar ko'paytmasi musbat (manfiy) bo'lsa, o'tkir (o'tmas) burchak tashkil etadi.

Vektorlarning skalyar ko'paytmasi quyidagi to'rtta xossaga ega:

- 1) $\mathbf{ab} = \mathbf{ba}$ (o'rin almashtirish yoki kommutativlik);
- 2) $(\alpha \mathbf{a}) \mathbf{b} = \alpha (\mathbf{ab})$ (sonli ko'paytmaga nisbatan guruhash yoki bir jinslilik);
- 3) $(\mathbf{a} + \mathbf{b}) \mathbf{c} = \mathbf{ac} + \mathbf{bc}$ (taqsimot xossasi yoki assotsiativlik);
- 4) $\mathbf{aa} = \mathbf{a}^2 > \mathbf{0}$, agar \mathbf{a} – nolmas vektor bo'lsa; $\mathbf{a}^2 = \mathbf{0}$, agar \mathbf{a} – nol vektor bo'lsa.

Bu xossalarni (6.1) va (6.2) formulalar yordamida osongina isbotlash mumkin. Agar \mathbf{a} va \mathbf{b} vektorlar to'g'ri burchakli dekart koordinatalari $\mathbf{a} = \{x_1; y_1; z_1\}$, $\mathbf{b} = \{x_2; y_2; z_2\}$ bilan aniqlangan bo'lsa, ularning skalyar ko'paytmasi mos koordinatalari ko'paytmalarining yig'indisiga teng bo'ladi, ya'ni

$$\mathbf{a} \cdot \mathbf{b} = x_1 x_2 + y_1 y_2 + z_1 z_2. \quad (6.3)$$

Bu formulani isbotlashda $\mathbf{i}, \mathbf{j}, \mathbf{k}$ bazis vektorlarning juft-juft ortogonalligi va birlik uzunlikka ega ekanligi, ya'ni

$$ii=1, ji=0, ki=0, ij=0, jj=1, kj=0, ik=0, jk=0, kk=1$$

larni hisobga olish etarli.

$\mathbf{a} = \{x_1, y_1, z_1\}$ va $\mathbf{b} = \{x_2, y_2, z_2\}$ vektorlar ortogonalligining etarli va zaruriy sharti quyidagi tenglikdir:

$$x_1 x_2 + y_1 y_2 + z_1 z_2 = 0. \quad (6.4)$$

$\mathbf{a} = \{x_1; y_1; z_1\}$ va $\mathbf{b} = \{x_2; y_2; z_2\}$ vektorlar orasidagi φ burchak quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\cos \varphi = \frac{x_1 x_2 + y_1 y_2 + z_1 z_2}{\sqrt{x_1^2 + y_1^2 + z_1^2} \cdot \sqrt{x_2^2 + y_2^2 + z_2^2}}. \quad (6.5)$$

Misol. Agar $\bar{\mathbf{a}} = (1, -3, 4)$, $\bar{\mathbf{b}} = (3, -4, 2)$ va $\bar{\mathbf{c}} = (-1, 1, 4)$ bo'lsa, $\bar{\mathbf{a}}$ vektorning $\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}}$ vektorga proektsiyasini hisoblang.

Echish: Yuqoridagi 2.10 formuladan foydalanamiz:

$$\Pi_{\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}}} \bar{\mathbf{a}} = \frac{\bar{\mathbf{a}}(\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}})}{|\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}}|}$$

$\bar{\mathbf{a}}(\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}})$ va $\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}}$ ifodalarni hisoblaymiz.

$$\bar{\mathbf{a}}(\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}}) = 1(3 - 1) - 3(-4 + 1) + 4(2 + 4) = 35$$

$$|\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}}| = \sqrt{(3 - 1)^2 + (-4 + 1)^2 + (2 + 4)^2} = 7$$

$$\text{Bundan } \Pi_{\bar{\mathbf{b}} + \bar{\mathbf{c}}} \bar{\mathbf{a}} = 5$$

8-ta'rif. Agar $\mathbf{a}, \mathbf{b}, \mathbf{c}$ nokomplanar vektorlarning boshlari umumiyluq nuqtaga keltirilganda \mathbf{c} vektor \mathbf{a} va \mathbf{b} vektorlar bilan aniqlangan tekislikka nisbatan shunday tomonda bo'lsa, u tomondan qaraganda \mathbf{a} dan \mathbf{b} gacha qisqa buralish soat strelkasiga qarama-qarshi (soat strelkasi bo'ylab) yo'nalgan bo'lsa, $\mathbf{a}, \mathbf{b}, \mathbf{c}$ nokomplanar vektorlar o'ng (*chap*) deyiladi,

\mathbf{a} vektorni \mathbf{b} vektorga vektorial ko'paytmasi deb, $\mathbf{c} = \mathbf{a} \times \mathbf{b}$ yoki $\mathbf{c} = [\mathbf{a}, \mathbf{b}]$ belgi bilan belgilanuvchi va quyidagi uch shartni qanoatlantiruvchi \mathbf{c} vektorga aytildi:

1) c vektoring uzunligi a va b vektorlar uzunliklari bilan ular orasidagi φ burchak sinusining ko'paytmasiga teng, ya'ni:

$$|c| = |[a, b]| = |a| \cdot |b| \cdot \sin \varphi; \quad (6.6)$$

2) c vektor a va b vektorlarning har biriga ortogonal;

3) c vektor yo'naliishi shundayki, a , b vektorlar o'ng bo'ladi.

(6.6) dan ko'rinish turibdiki, c vektor uzunligining kattaligi a va b vektorlarga qurilgan parallelogramming yuziga teng.

Ikki vektoring kollinarlik sharti ular vektorial ko'paytmasining nolga tenglidir.

Vektorlarning vektorial ko'paytmasi quyidagi to'rtta xossaga ega:

1. $[a, b] = -[b, a]$ - antikommutativlik;
2. $[(\alpha a), b] = \alpha [a, b]$ -birjinslilik;
3. $[(a+b), c] = [a, c] + [b, c]$ - assotsiativlik;
4. Ixtiyoriy a vektor uchun $[a, a] = 0$.

Bu xossalalar osongina isbotlanadi.

Agar ikki a va b vektor o'zlarining to'g'ri burchakli dekart koordinatalari $a = \{x_1; y_1; z_1\}$ va $b = \{x_2; y_2; z_2\}$ bilan aniqlangan bo'lsa, bu vektorlarning vektorial ko'paytmasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$[a, b] = a \times b = \{y_1 z_2 - y_2 z_1; z_1 x_2 - z_2 x_1; x_1 y_2 - x_2 y_1\} = \begin{vmatrix} i & j & k \\ x_1 & y_1 & z_1 \\ x_2 & y_2 & z_2 \end{vmatrix}. \quad (6.7)$$

i, j, k bazis vektorlarning o'zaro ortogonalligi, o'ng uchlik tashkil qilishi va birlik uzunlikka ega ekanligi, ya'ni

$$\begin{aligned} [i, i] &= 0, [i, j] = k, [i, k] = -j, [j, i] = -k, [j, j] = 0, [j, k] = i, [k, i] = j, \\ &[k, j] = -i, [k, k] = 0. \end{aligned}$$

larni hisobga olib, (6.7) formulani osongina isbotlash mumkin.

Ixtiyoriy a , b , c vektorlar berilgan bo'lsin. Agar a vektorni b vektorga vektorial ko'paytirish natijasida hosil bo'lган $[a, b]$ vektor c vektorga skalyar ko'paytirilsa, a, b va c vektorlarning aralash ko'paytmasi deb atalgan $[a, b]c$ son hosil bo'ladi.

$[a, b]c$ aralash ko'paytma, agar berilgan a , b va c uchlik o'ng bo'lsa, musbat ishora bilan, aks holda, manfiy ishora bilan, boshlari umumiy nuqtaga keltirilgan a , b va c vektorlarga qurilgan parallelepipedning hajmiga teng. Ko'rinish turibdiki, agar a , b , c komplanar bo'lsa, ularning aralash ko'paytmasi nolga teng. Osongina ko'rinish turibdiki, $[a, b]c = a[b, c]$, chunki har ikki son kattaligi bo'yicha bir xil parallelepipedning hajmiga teng va ikkala uchlik bir xil yo'naliishi, ya'ni ikkalasi ham o'ng, yoki chap bo'lsa.

Shuning uchun a , b va c vektorlarning aralash ko'paytmasi aynan qaysi ikkita vektor vektorial ko'paytirilayotganligi (birinchi ikkitasi yoki oxirgi ikkitasi) ko'rsatilmasdan oddiy abc ko'rinishda yoziladi.

Uchta vektor komplanarligining etarli va zaruriy sharti ularning aralash ko'paytmasi nolga tenglidir.

Agar a , b va c vektorlar o'zlarining to'g'ri burchakli dekart koordinatalari $a = \{x_1; y_1; z_1\}$, $b = \{x_2; y_2; z_2\}$, $c = \{x_3; y_3; z_3\}$ bilan aniqlangan bo'lsa, ularning aralash ko'paytmasi abc satrlari mos ravishda ko'paytirilayotgan vektorlarning koordinatalari (komponentalari) dan iborat determinantga teng, ya'ni

$$abc = \begin{vmatrix} x_1 & y_1 & z_1 \\ x_2 & y_2 & z_2 \\ x_3 & y_3 & z_3 \end{vmatrix} \quad (6.8)$$

Haqiqatan, $[a, b] = \{y_1 z_2 - y_2 z_1; z_1 x_2 - z_2 x_1; x_1 y_2 - x_2 y_1\}$ va $s = \{x_3; y_3; z_3\}$ ekanligidan (6.8) formulaga asosan $[a, b]$ va c vektorlarning $[a, b]c$ skalyar ko'paytmasi

$$[a, b] \cdot c = abc = x_3(y_1z_2 - y_2z_1) + y_3(z_1x_2 - z_2x_1) + z_3(x_1y_2 - x_2y_1)$$

ga teng, lekin bu (6.8) ning o'zi. Demak, $\mathbf{a} = \{x_1; y_1; z_1\}$, $\mathbf{b} = \{x_2; y_2; z_2\}$, $\mathbf{c} = \{x_3; y_3; z_3\}$ vektorlarning komplanarligining etarli va zaruriy sharti quyidagicha:

$$\begin{vmatrix} x_1 & y_1 & z_1 \\ x_2 & y_2 & z_2 \\ x_3 & y_3 & z_3 \end{vmatrix} = 0.$$

Misol. $B(5,1,0)$ nuqtaga qo'yilgan $\bar{F} = (1, -1, 1)$ kuch vektorining yo'naltiruvchi kosinuslarini va shu kuchning $A(3,2,-1)$ nuqtaga nisbatan momentini toping.

Echish: Kuch vektorining yo'naltiruvchi kosinuslarini topamiz.

$$\cos \alpha = \frac{F_x}{|\bar{F}|} = \frac{1}{\sqrt{3}} \quad \cos \beta = \frac{F_y}{|\bar{F}|} = -\frac{1}{\sqrt{3}} \quad \cos \gamma = \frac{F_z}{|\bar{F}|} = \frac{1}{\sqrt{3}}$$

Kuch momenti $\overline{AB} = (2, -1, 1)$ va \bar{F} vektorlarning vektor ko'paytmasi kabi aniqlanadi.

$$\bar{m} = [\overline{AB}\bar{F}] = \begin{vmatrix} \bar{i} & \bar{j} & \bar{k} \\ 2 & -1 & 1 \\ 1 & -1 & 1 \end{vmatrix} = -\bar{j} - \bar{k}$$

ya'ni $\bar{m} = (0, -1, -1)$.

Agar \mathbf{b} vektorni \mathbf{c} vektorga vektorial ko'paytirish natijasida hosil bo'lган vektor \mathbf{a} vektorga yana vektorial ko'paytrilsa, hosil bo'lган $[\mathbf{a}, [\mathbf{b}, \mathbf{c}]]$ vektor ikki karrali vektorial ko'paytma deyiladi. Ixtiyoriy \mathbf{a} , \mathbf{b} va \mathbf{c} vektorlar uchun quyidagi formula o'rini:

$$[\mathbf{a}, [\mathbf{b}, \mathbf{c}]] = \mathbf{b}(\mathbf{a}\mathbf{c}) - \mathbf{c}(\mathbf{a}\mathbf{b}). \quad (6.9)$$

Bu formulani isbot qilish uchun to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasini quyidagicha tanlab olamiz: bu vektorlar boshlari umumiyluqda – koordinatalar boshi O ga keltirilganda Oz o'q \mathbf{c} vektor bo'ylab yo'nalgan, Oy o'q esa \mathbf{b} va \mathbf{c} vektorlar bilan aniqlangan tekislikda joylashgan bo'lsin. U holda, ko'riniib turibdiki, $\mathbf{a}, \mathbf{b}, \mathbf{c}$ quyidagi koordinatalarga ega bo'ladi: $\mathbf{a} = \{x_1; y_1; z_1\}$, $\mathbf{b} = \{o; y_2; z_2\}$, $\mathbf{c} = \{o; o; z_3\}$. (6.7) formulaga asosan $[\mathbf{b}, \mathbf{c}] = \{y_2z_3; o; o\}$ va xuddi shu formuladan $[\mathbf{a}, [\mathbf{b}, \mathbf{c}]] = \{o; z_1y_2z_3; -y_1y_2z_3\}$ tenglikka ega bo'lamiz. Boshqa tarafdan, ko'riniib turibdiki, $\mathbf{a}\mathbf{c} = z_1z_3$, $\mathbf{a}\mathbf{b} = y_1y_2 + z_1z_2$, shuning uchun $\mathbf{b}(\mathbf{a}\mathbf{c}) = \{o; y_2z_1z_3; z_2z_1z_3\}$, $\mathbf{c}(\mathbf{a}\mathbf{b}) = \{o; o; y_1y_2z_3 + z_1z_2z_3\}$. Bu tengliklarni solishtirib, (6.9) tenglikni osongina hosil qilamiz.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

10. Vektor deb nimaga aytildi?
11. Vektorlarni qanday ko'paytmalarini bilasiz?
12. Chap va o'ng sistemalar nima?

1.3.2-б. Blits-so'rov uchun savollar

23. Koordinatalari bilan berilgan vektorlarning skalyar ko'paytmasini qanday hisoblash mumkin va u simmetriklik xossasiga egami?
24. Ikki vektoring vektor ko'paytmasi va u qanday xossalarga ega?
25. Vektorlarni aralash ko'paytmasi?

1.3.2-в. Og'zaki so'rov uchun savollar

- 26. Vektor uzunligi?
- 27. Skalyar ko'paytma?
- 28. Ikki vektoring vektor ko'paytmasi?
- 29. Vektor ko'paytmaning xossalari?
- 30. Vektorlaning aralash ko'paytmasi?

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar:* takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish:* yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdag'i ishlar:* muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Ilin V.A., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. – M: Nauka, 1998.
2. Kletenik D.V., Sbornik zadach po analiticheskoy geometrii.-M.: GITTL. 1986.
3. A.R.Artikov. Analitik geometriya. Uslubiy qo'llanma. Samarqand 2006.

Qo'shimcha

1. Bugrov YA.S., Nikolskiy S.M. Elementy lineynoy algebry i analiticheskoy geometrii. – M: Nauka, 1980.
2. Suberbiller O.N. Zadachi i uprajneniya po analiticheskoy geometrii.- M: 1931.
3. Gyunter N.M. i Kuzmin R.O. Sbornik zadach po visshey matematike. – M: 1958.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;

- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yildi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «-» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki to'g'ri deb o'ylaganiningizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma'lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 7. Tekislikda va fazoda dekart koordinatalar sistemasini almashtirish

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

17. Ortogonal almashtirish.
18. Bazis vektorlar.
19. Koordinatalar sistemasini almashtirish.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta'surotlar berish, Vektorlar va ularning keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi:* talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Analitik geometriyaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;

- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarining izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi*: aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Vektorlar nazariyasini Analitik geometriya kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O’qitish texnologiyasi:

- *O’qitish usullari*: instruktaj; Ma’ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
- *O’qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O’qitish vositalari*: Ma’ruza matni; jadvallar, multimedya;
- *O’qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o’g’zaki savol-javob, blits-so’rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o’quv fanlar sistemasidagi o’rni va roli bilan tanishtirish;
- O’quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o’quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarni ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma’ruzasi paytida o’qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O’qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O’quv faoliyati natijalari:

- Fan ma’ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytildi
- Fan ma’ruzasida o’qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakerlab beradi;
- Fanning asosiy ta’riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma’ruzalarining asosiy yo’nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to’liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag’ulotlarni bajarishda o’rganilgan iboralar bilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma’ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O’qituvchining faoliyati*: tayyorlarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o’ziga ishonch, aniqligi); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallari); ma’ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o’quv mashg’ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so’zlar, kategoriylar; internet saytlari va adabiyotlar ro’yhati; o’quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o’quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko’rinish; o’quv materiallari va qo’llanmalar); ma’ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o’quv materialini qabul qilishga tayyorlarlik ko’rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so’rov; mustahkamlovchi so’rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma'ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi;; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konsept qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati*: mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e'tiborlarini asosiylarda jalg qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me'zonlari;
- *Talabalar faoliyati*: ishning tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma'ruza rejasi:

1. Ortogonal almashtirish.
2. Bazis vektorlar.
3. Koordinatalar sistemasini almashtirish.

Kalit so'zlar: Vektor, bazis vektor, koordinatalar sistemasi, koordinatalar sistemasini almashtirish

1.3.1. Ma'ruza matni

Текисликда мос равища \mathbf{i} , \mathbf{j} ва \mathbf{i}' , \mathbf{j}' базис векторларга эга бўлган иккита ихтиёрий Oxy ва $O'x'y'$ тўғри бурчакли координаталар системалари берилган бўлсин. Oxy текисликдаги ихтиёрий M нуқтанинг x ва y координаталари билан шу нуқтанинг $O'x'y'$ координаталар системасидаги x' ва y' координаталари орасидаги боғланишини

ифодалайдиган координаталар алмаштириши формуласини тузамиз. Равшанки, \vec{OM} ва $\vec{O'M}$ векторларни \mathbf{i} , \mathbf{j} ва \mathbf{i}' , \mathbf{j}' базис векторлари орқали ёйиб,

$$\vec{OM} = x\mathbf{i} + y\mathbf{j}, \quad \vec{O'M} = x'\mathbf{i}' + y'\mathbf{j}' \quad (7.1)$$

га эга бўламиз.

Агар $O'x'y'$ координаталар системаси O' бошининг координаталарини Oxy координаталар системасига нисбатан x_0 , y_0 билан белгиласак, у холда,

$$\vec{O'O'} = x_0 \cdot \mathbf{i} + y_0 \cdot \mathbf{j}. \quad (7.2)$$

Хар қандай векторни текислиқда \mathbf{i} , \mathbf{j} базис бүйича ёиши мүмкін бўлганлиги учун, шундай $a_{11}, a_{12}, a_{21}, a_{22}$ сонлар топиладики,

$$\mathbf{i}' = a_{11}\mathbf{i} + a_{12}\mathbf{j}, \quad \mathbf{j}' = a_{21}\mathbf{i} + a_{22}\mathbf{j} \quad (7.3)$$

бўлади.

Векторларни қўшиш қоидасидан $\vec{OM} = \vec{OO'} + \vec{O'M}$ га эга бўламиз. У ҳолда, (7.1) ва (7.2) тенгликларни қўллаб ва \mathbf{i} , \mathbf{j} ларга боғлиқ қўшилувчиларни гурухласак,

$$xi + yj = (x_0 + a_{11}x' + a_{22}y')i + (y_0 + a_{12}x' + a_{21}y')j$$

га эга бўламиз.

Векторларни базис бўйича ёишининг ягоналигидан фойдаланиб, охиригина тенгликдан изланадиган координаталар алмаштириши формуласини ҳосил қиласиз:

$$\begin{aligned} x &= x_0 + a_{11}x' + a_{21}y', \\ y &= y_0 + a_{12}x' + a_{22}y'. \end{aligned} \quad (7.4)$$

Бу алмаштиришнинг коэффициентлари оддий геометрик маънога эга. (7.3) тенгликларнинг хар бирини аввал \mathbf{i} га, кейин эса \mathbf{j} га скаляр кўпайтириб ва $\mathbf{i}\mathbf{i}=1$, $\mathbf{j}\mathbf{j}=1$, $\mathbf{i}\mathbf{j}=0$, $\mathbf{j}\mathbf{i}=0$ ларни ҳисобга олиб,

$$a_{11} = \cos(\mathbf{i}' \wedge \mathbf{i}), \quad a_{12} = \cos(\mathbf{i}' \wedge \mathbf{j}), \quad a_{21} = \cos(\mathbf{j}' \wedge \mathbf{i}), \quad a_{22} = \cos(\mathbf{j}' \wedge \mathbf{j}) \quad (7.5)$$

га эга бўламиз.

Агар \mathbf{i} ва \mathbf{i}' базис векторлар орасидаги бурчакни φ орқали белгиласак, у ҳолда, \mathbf{j} ва \mathbf{j}' базис векторлар орасидаги бурчак эса, агар иккала система бир хил ориентацияга эга бўлса, φ га, акс ҳолда, $\pi - \varphi$ га тенг бўлади. Шундай қилиб, (7.4) формулалар бир хил ориентацияга эга бўлган ҳолда:

$$x = x_0 + x' \cos\varphi - y' \sin\varphi, \quad y = y_0 + x' \sin\varphi + y' \cos\varphi, \quad (7.5)$$

акс ҳолда:

$$x = x_0 + x' \cos\varphi + y' \sin\varphi, \quad y = y_0 + x' \sin\varphi - y' \cos\varphi. \quad (7.6)$$

кўринишни олади.

Хулоса қилиб айтиш мүмкинки, бир хил ориентацияли иккита Oxy ва O'x'y' координаталар системалари қандай бўлмасин, улардан биринчиси иккинчиси билан $\vec{OO'}$ вектор бўйлаб параллел кўчириш ва координата боши атрофида φ бурчакка буриш натижасида устма-уст тушиши мүмкин.

Равшанки, (7.5) тенгламани x' , y' ларга нисбатан ечиб,

$$\begin{aligned} x^1 &= (x - x_0) \cos\varphi + (y - y_0) \sin\varphi, \\ y^1 &= (x - x_0) \sin\varphi + (y - y_0) \cos\varphi \end{aligned}$$

тескари формулаларни ҳосил қиласиз.

Худди шундай мулоҳазалар ёрдамида фазода координаталар алмаштириши:

$$\begin{aligned} x &= x_0 + a_{31}x' + a_{21}y' + a_{31}z', \\ y &= y_0 + a_{12}x' + a_{22}y' + a_{32}z', \\ z &= z_0 + a_{13}x' + a_{23}y' + a_{33}z' \end{aligned}$$

формулаларини ҳосил қилиш мүмкин.

Текисликнинг чизиқли алмаштириши деб, шу текисликнинг хар бир M(x,y) нуқтаси x' , y' координаталари

$$\begin{aligned} x' &= a_{11}x + a_{12}y + a_{13}, \\ y' &= a_{21}x + a_{22}y + a_{23}. \end{aligned} \quad (7.7)$$

формулалар билан аниқланадиган $M'(x',y')$ нуқтага кўчириладиган алмаштиришга айтилади.

$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix}$ детерминант (7.7) алмаштиришнинг детерминанти деб аталади. (7.7)

алмаштириш $\Delta \neq 0$ бўлса, айнимаган, $\Delta = 0$ бўлган ҳолда эса айнигана деб аталади.

Агар

$$a_{11}^2 + a_{21}^2 = 1, \quad a_{12}^2 + a_{22}^2 = 1, \quad a_{11}a_{12} + a_{21}a_{22} = 0 \quad (7.8)$$

бўлса, (7.7) чизиқли айнимаган алмаштириш ортогонал дейилади.

Равшанки, (7.5) ва (7.6) алмаштиришларнинг коэффициентлари (7.8) муносабатларни қаноатлантиради ва шунинг учун (7.5) ва (7.6) алмаштиришлар ортогоналдир.

Теорема. Ортогонал алмаштиришлар натижасида нуқталар орасидаги масофалар сакланади.

Исбот. $M_1(x_1, y_1)$ ва $M_2(x_2, y_2)$ нуқталар (7.7) ортогонал алмаштириш натижасида мос равища $M'_1(x'_1, y'_1)$ ва $M'_2(x'_2, y'_2)$ нуқталарга ўтсин. $\overline{M_1 M_2}$ ва $\overline{M'_1 M'_2}$ кесмалар бир хил узунликларга эга эканлигини кўрсатамиз. (7.7) ва (7.8) формуулалар ёрдамида

$$\begin{aligned} [M'_1 M'_2]^2 &= [x'_1 - x'_2]^2 + [y'_1 - y'_2]^2 = [a_{11}(x_2 - x_1) + a_{12}(y_2 - y_1)]^2 + \\ &\quad + [a_{21}(x_2 - x_1) + a_{22}(y_2 - y_1)]^2 = \\ &= (a_{11}^2 + a_{21}^2)(x_2 - x_1)^2 + (a_{12}^2 + a_{22}^2)(y_2 - y_1)^2 + \\ &\quad + 2(a_{11}a_{12} + a_{21}a_{22})(x_2 - x_1)(y_2 - y_1) = (x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 = |M_1 M_2|^2 \end{aligned}$$

га эга бўламиз.

Ортогонал алмаштиришларда масофалар сакланганлиги учун текисликдаги ҳар қандай фигура ўзига тенг фигурага аксланади.

Агар куйидаги муносабатлар бажарилса фазода

$$\begin{aligned} x' &= a_{11}x + a_{12}y + a_{13}z + a_{14}, \\ y' &= a_{21}x + a_{22}y + a_{23}z + a_{24}, \\ z' &= a_{31}x + a_{32}y + a_{33}z + a_{34} \end{aligned} \quad (7.9)$$

чизиқли алмаштириш ортогонал дейилади:

Agar L to'g'ri chiziq koordinatalar boshidan o'tsa, uning tenglamasi (14) ko'rinishga ega, bu erda \mathbf{n} – unga perpendikular birlik vektor, faqat $p=0$. (5.8) formula koordinatalar orqali quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$x \cos \alpha + y \sin \alpha = r. \quad (5.9)$$

(5.9) tenglama to'g'ri chiziqning *normal ko'rinishdagi* tenglamasi deyiladi.

Agar L to'g'ri chiziq $Ax+By+C=0$ umumiy tenglama bilan berilgan bo'lsa, uni

$$\mu = \pm \frac{1}{\sqrt{A^2 + B^2}}$$

songa ko'paytirib, normal ko'rinishga keltirish mumkin, bu erda bu sonning ishorasi C ning ishorasiga qarama-qarshi ($r=-\mu C \geq 0$) qilib olinadi.

μ son *normallovchi ko'paytuvchi* deyiladi. $(\mu A)^2 + (\mu V)^2 = 1$ bo'lganligi uchun yagona α ($0 \leq \alpha < 2\pi$) burchak mavjud bo'lib, $\mu A = \cos \alpha$, $\mu V = \sin \alpha$ bo'ladi. Natijada (5.9) tenglamani hosil qilamiz. Bu erda: $p = -\mu C \geq 0$. Eslatib o'tamizki, r son koordinata boshidan L to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofaga teng.

Quyidagi masalani qaraymiz: Berkitilgan $M_0(x_0, y_0)$ nuqtadan

$$Ax+By+C=0. \quad (5.10)$$

tenglama bilan berilgan L to'g'ri chiziqqacha bo'lган d masofa topilsin.

Faraz qilaylikki,

$$\vec{OM} \cdot \mathbf{n} = 0 \quad (5.11)$$

(5.10) tenglamaning normal ko'rinishdagi tenglamasi bo'lsin. Shunday qilib, agar $C \neq 0$, r ($r > 0$) koordinata boshi O dan chiquvchi L to'g'ri chiziqqa perpendikular \mathbf{a} vektorning uzunligi bo'ladi, \mathbf{n} – esa \mathbf{a} vektor yo'nali shiga ega bo'lgan birlik vektor, $r = |\mathbf{a}|$, $n = \frac{a}{p}$. M(x, y) – L to'g'ri chiziqning ixtiyoriy joriy nuqtasi bo'lsin. U holda, ko'rini turibdiki, $M_0(x_0, y_0)$ nuqtadan L gacha masofani topish uchun $\vec{M}_0 \vec{M} = \vec{OM}_0 \cdot \vec{OM}$ vektorni \mathbf{n} vektor yo'nali shiga proektsiyalab, proektsiya kattaligining absolyut qiymatini olish kerak:

$$d = |pr_n \vec{MM}_0| = |\vec{MM}_0 \cdot n| = |\vec{OM}_0 \cdot n - \vec{OM}| = |\vec{OM}_0 \cdot n - r| \text{ yoki} \\ d = |\vec{OM}_0 \cdot n - r| \quad (5.12)$$

Shunday qilib, d masofani hosil qilish uchun (5.10) tenglamani (5.11) normal ko'rinishga keltirib, chap tomonagi x, y lar o'rniga mos ravishda $M_0(x_0, y_0)$ nuqtaning x_0, y_0 koordinatalarini qo'yib, hosil bo'lgan ifodaning absolyut qiymatini olish kerak.

Ko'rini turibdiki, L to'g'ri chiziqning (5.10) umumiy tenglamasi uchun (5.12) tenglik quyidagi ko'rinishga ega:

$$d = \frac{|Ax_0 + By_0 + C|}{\sqrt{A^2 + B^2}} \quad (5.13)$$

S=0 bo'lganda (5.12) formula, shuningdek, (5.13) formula ham o'rini bo'laveradi. Bu holda: $r=0$, \mathbf{n} – L ga perpendikular ikkita vektorlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib,

$$d = |\text{pr}_{\mathbf{n}} \vec{M}_0 \vec{M}| = |\vec{OM}_0 \cdot \mathbf{n} - \vec{OM} \cdot \mathbf{n}| = |\vec{OM}_0 \cdot \mathbf{n}| \text{ yoki } d = \frac{|Ax_0 + By_0|}{\sqrt{A^2 + B^2}},$$

ya'ni $C=0$ bo'lgan holdagi (5.13).

To'g'ri chiziqlar dastasining tenglamasi

Berilgan tekislikda joylashgan va shu tekislikning biror S nuqtasidan o'tuvchi to'g'ri chiziqlar to'plami markazi S nuqtada bo'lgan *to'g'ri chiziqlar dastasi* deyiladi. To'g'ri chiziqlar dastasining S markazi shu dastaning ikkita turli to'g'ri chizig'ining berilishi bilan to'liq aniqlanadi. Dastaning markazi S(x_0, y_0) ni bilgan holda dastaning ixtiyoriy to'g'ri chizig'ining tenglamasini yozish oson. Buning uchun to'g'ri chiziqlar S(x_0, y_0) nuqtadan o'tadi degan faraz bilan to'g'ri chiziqlarning burchak koeffitsientli tenglamasi (8) dan foydalanish mumkin. U holda, quyidagi tenglik o'rinni bo'lishi kerak:

$$y_0 = kx_0 + b. \quad (21)$$

(8) dan (21) ni ayirib,

$$u - y_0 = k(x - x_0), \quad (22)$$

ko'rinishdagi, k parametrga bog'liq, S(x_0, y_0) nuqtadan o'tuvchi, vertikal bo'limgan barcha to'g'ri chiziqlarni aniqlovchi tenglamaga ega bo'lamiz. Faraz qilamizki, bu to'g'ri chiziqlar dastasidan M(x_1, y_1) nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziqlarni ajratib olish kerak bo'lsin. U holda, ko'rinish turibdiki, $u_1 - y_0 = k(x_1 - x_0)$ tenglik bajarilishi kerak. Bu tenglikdan $k = u_1 - y_0 / x_1 - x_0$ ni topib va (22) ga qo'yib, bizga ma'lum bo'lgan berilgan ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziqlarning tenglamasi (6) ga ega bo'lamiz.

§ 2. Tekislikdagi to'g'ri chiziqlarga doir ba'zi masalalar

§ 1 da tekislikdagi to'g'ri chiziqlarga doir ba'zi masalalar ko'rib chiqilgan edi. Ikki to'g'ri chiziqlarning orasidagi burchakni topish, ikki to'g'ri chiziqlarning parallelilik va perpendikularlik shartlarini aniqlash, nuqtadan to'g'ri chiziqlarning bo'lgan masofani hisoblash, ikki to'g'ri chiziqlarning kesishish nuqtasidan o'tuvchi to'g'ri chiziqlarning tenglamasini aniqlash kabi masalalar shular jumlasidan.

Bu paragrafda § 1 materialini chuqurlashtiradigan va kengaytiradigan masalalar ko'rib chiqiladi.

1. $M_0(x_0, y_0)$ nuqtadan o'tuvchi va berilgan $y = k_1 x + b_1$ to'g'ri chiziqlarning bilan berilgan ω burchak tashkil qiluvchi to'g'ri chiziqlarning tenglamasini aniqlash.

Bu to'g'ri chiziqlarning (22) ko'rinishda izlaymiz:

$$y - y_0 = k(x - x_0).$$

(22) to'g'ri chiziqlarning $M_0(x_0, y_0)$ nuqtadan o'tadi. Endi uning burchak koeffitsienti k ni Shunday tanlaymizki, u $y = k_1 x + b_1$ to'g'ri chiziqlarning bilan ω burchak tashkil qilsin. Izlanayotgan $y = kx + (y_0 - kx_0)$ to'g'ri chiziqlarning va $y = k_1 x + b_1$ to'g'ri chiziqlarning ω burchak tashkil qilganligi uchun (9) formulaga asosan

$$\pm \operatorname{tg} \omega = \frac{k - k_1}{1 + k k_1} \quad \text{ga ega bo'lamiz yoki bu erdan}$$

$$k = \frac{k_1 \pm \operatorname{tg} \omega}{1 \pm k_1 \operatorname{tg} \omega} \quad (27)$$

(27) formulada maxraj nolga teng bo'lgan holda burchak koeffitsient mavjud bo'lmaydi va izlanayotgan to'g'ri chiziqlarning $x = x_0$ tenglama bilan aniqlash kerak bo'ladi. Nihoyat, izlanayotgan ikki to'g'ri chiziqlarning uchun quyidagi ko'rinishdagi tenglamalarga ega bo'lamiz:

1) $k_1 \operatorname{tg} \omega \neq \pm 1$ bo'lganda,

$$y - y_0 = \frac{k_1 + \operatorname{tg} \omega}{1 - k_1 \operatorname{tg} \omega} (x - x_0) \quad \text{va} \quad y - y_0 = \frac{k_1 - \operatorname{tg} \omega}{1 + k_1 \operatorname{tg} \omega} (x - x_0);$$

$$2) \quad k_1 \operatorname{tg} \omega = -1 \text{ bo'lganda, } y - y_0 = \frac{k_1 + \operatorname{tg} \omega}{2} (x - x_0) \quad \text{va} \quad x = x_0;$$

$$3) \quad k_1 \operatorname{tg} \omega = 1 \text{ bo'lganda, } x = x_0 \quad \text{va} \quad y - y_0 = \frac{k_1 - \operatorname{tg} \omega}{2} (x - x_0).$$

2. Nuqtaning to'g'ri chiziqlardan uzoqlashishini aniqlash.

d son M nuqtadan L to'g'ri chiziqlarning masofani belgilansin. M nuqtaning L to'g'ri chiziqlardan uzoqlashishi δ deb, M nuqta va koordinata boshi O to'g'ri chiziqlarning L ga nisbatan turli tomonlarda joylashsa, +d songa, M va O nuqtalar L ga nisbatan bir tomonda joylashsa, -d songa

aytiladi. $M_0(x_0, y_0)$ nuqtaning normal $x \cdot \cos\varphi + y \cdot \sin\varphi - r = 0$ tenglama bilan aniqlangan L to'g'ri chiziqdan uzoqlashishi δ ni topish uchun shu tenglamada x va y larning o'rniga M_0 nuqtaning x_0 va y_0 koordinatalarini qo'yish kerak, shuning uchun

$$\delta = x_0 \cos \varphi + y_0 \sin \varphi - r.$$

3. Berilgan to'g'ri chiziqlar bilan aniqlangan burchaklarning bissektrisalarini topish.

Ikki to'g'ri chiziq quyidagi normal ko'rinishdagi tenglamalar bilan berilgan bo'lzin:

$$x \cdot \cos \varphi + y \cdot \sin \varphi - r = 0 \text{ va } x \cdot \cos \psi + y \cdot \sin \psi - r_1 = 0.$$

Bu tenglamalarning chap tomonlari $M(x, y)$ nuqtaning birinchi va ikkinchi to'g'ri chiziqlardan mos ravishda uzoqlashishlari δ_1 va δ_2 larga teng. Koordinata boshi joylashgan burchakning bissektrisasida bu uzoqlashishlar ham modul bo'yicha, ham ishora bo'yicha teng, boshqa bissektrisada esa δ_1 va δ_2 uzoqlashishlar modul bo'yicha teng va ishora bo'yicha qarama-qarshi. Ikkala to'g'ri chiziqdan bir xil masofada joylashgan nuqtalar to'plami bissektrisa bo'lganligi uchun izlanayotgan bissektrisalar tenglamalari quyidagi ko'rinishlarni oladi:

$$(x \cos \varphi + y \sin \varphi - r) - (x \cos \psi + y \sin \psi - r_1) = 0,$$

$$(x \cos \varphi + y \sin \varphi - r) + (x \cos \psi + y \sin \psi - r_1) = 0.$$

4. Berilgan to'g'ri chiziq berilgan $\overline{M_1 M_2}$ kesmani kesib o'tadimi?

To'g'ri chiziq $Ax+By+C=0$ (1) tenglama bilan berilgan bo'lzin va $M_1(x_1, y_1)$ va $M_2(x_2, y_2)$ (1) to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lмаган ikki nuqta. Umumiylikni yo'qotmasdan, faraz qilamizki, $M_1 \neq M_2$ bo'lzin. U holda, M_1 va M_2 nuqtalardan o'tuvchi,

$$x = (1-t)x_1 + tx_2, \quad y = (1-t)y_1 + ty_2. \quad (28)$$

koordinat-parametrik tenglamalar bilan $M_1 M_2$ to'g'ri chiziq aniqlangan bo'ladi. (1) to'g'ri chiziq

$\overline{M_1 M_2}$ kesmani kesib o'tish o'tmasligini aniqlash uchun (1) va (28) to'g'ri chiziqlarning kesishish yoki kesishmasligini, kesishsa, qaysi nuqtada ekanligini aniqlash lozim. Buning uchun (1), (28) uch tenglamalar sistemasini birgalikda uchta o'zgaruvchi x , y va t ga nisbatan echish kerak. (28) dagi x va y lar uchun ifodalarni (1) ga keltirib qo'yib va qisqalik uchun quyidagi $F_1 = Ax_1 + By_1 + C$ va $F_2 = Ax_2 + By_2 + C$ belgilashlarni kiritib, bir o'zgaruvchili t o'zgaruvchiga nisbatan $(1-t)F_1 + tF_2 = 0$ ko'rinishdagi tenglamani hosil qilamiz, bu erdan

$$t = \frac{F_1}{F_1 - F_2}$$

tenglik kelib chiqadi.

Agar $F_1 = F_2$ bo'lsa, echim mavjud emas, ya'ni $M_1 M_2$ to'g'ri chiziq (1) to'g'ri chiziqqa parallel. Boshqa tarafdan, ko'rini turibdiki, (1) to'g'ri chiziq

$$0 < \frac{F_1}{F_1 - F_2} < 1$$

bo'lganda, $\overline{M_1 M_2}$ kesmani kesib o'tyapti. Bu esa F_1 va F_2 lar turli ishoraga ega bo'lganda, ya'ni $F_1 F_2 < 0$ bo'lsa, o'rini bo'ladi.,

Bu masalaning yana bir sodda echimi mavjud.

To'g'ri chiziq tenglamasini normal $x \cos \varphi + y \sin \varphi - r = 0$ ko'rinishda yozib olamiz. Bu tenglamaning chap tomoniga avval M_1 nuqtaning koordinatalarini, keyin esa M_2 nuqtaning koordinatalarini qo'yib, M_1 va M_2 nuqtalarning berilgan to'g'ri chiziqdan mos ravishda δ_1 va δ_2 uzoqlashishlarini topamiz.

Berilgan to'g'ri chiziq $\overline{M_1 M_2}$ kesmani kesib o'tishi uchun M_1 va M_2 nuqtalarning shu to'g'ri chiziqqa nisbatan turli tomonlarda joylashishi, ya'ni δ_1 va δ_2 uzoqlashishlar turli ishoralarga ega bo'lishi zarur va etarli.

5. Berilgan M nuqta va koordinata boshi O larning berilgan ikki to'g'ri chiziq orqali aniqlangan burchaklarga nisbatan o'zaro joylashishini aniqlash.

Ikkita kesishuvchi to'g'ri chiziqlar berilgan bo'lsin va berilgan M nuqta va koordinat boshi O shu to'g'ri chiziqlar orqali aniqlangan burchaklardan birida, qo'shma burchaklarda yoki vertikal burchaklarda joylashishini aniqlash talab qilingan bo'lsin. Buning uchun berilgan to'g'ri chiziqlar tenglamalarini normal ko'rinishda yozib olamiz va bu tenglamalarning chap tomonlariga M nuqtaning koordinatalarini qo'yib, M nuqtaning birinchi va ikkinchi to'g'ri chiziqdan mos ravishda δ_1 va δ_2 uzoqlashishlarini hisoblaymiz. Uzoqlashish ta'rifidan kelib chiqadiki, M nuqta va koordinat boshi O bir burchakda joylashgan bo'ladi, agar ikkala uzoqlashish δ_1 va δ_2 manfiy bo'lsa, vertikal burchaklarda joylashadi, agar δ_1 va δ_2 – ikkalasi musbat bo'lsa, qo'shma burchaklarda joylashadi, agar δ_1 va δ_2 turli ishoralarga ega bo'lsa.

6. Uch to'g'ri chiziqning bir nuqtada kesishish sharti.

Uch to'g'ri chiziq quyidagi tenglamalari bilan berilgan

$$A_1x+B_1y+C_1=0, \quad A_2x+B_2y+C_2=0, \quad A_3x+B_3y+C_3=0,$$

va ulardan ikkitasi bitta kesishish nuqtasiga ega bo'lsin. U holda, ko'rinib turibdiki, quyidagi uchta determinantlardan

$$\begin{vmatrix} A_1 & B_1 \\ A_2 & B_2 \end{vmatrix}, \quad \begin{vmatrix} A_1 & B_1 \\ A_3 & B_3 \end{vmatrix}, \quad \begin{vmatrix} A_2 & B_2 \\ A_3 & B_3 \end{vmatrix} \quad (29)$$

kamida bittasi noldan farqli bo'ladi. Aniqlik uchun

$$\begin{vmatrix} A_1 & B_1 \\ A_2 & B_2 \end{vmatrix} \neq 0$$

bo'lsin.

U holda birinchi ikkita to'g'ri chiziq bir nuqtada kesishadi va uch to'g'ri chiziq bir nuqtada kesishishi uchun uchinchi $A_3x+B_3y+C_3=0$ to'g'ri chiziq birinchi ikkita to'g'ri chiziqlar bilan aniqlangan

$$\alpha(A_1x+B_1y+C_1)+\beta(A_2x+B_2y+C_2)=0$$

dastaga qarashli bo'lishi zarur va etarli.

Bu esa shuni anglatadiki,

$$\alpha A_1 + \beta A_2 = -\gamma A_3, \quad \alpha A_1 + \beta A_2 + \gamma A_3 = 0,$$

$$\alpha B_1 + \beta B_2 = -\gamma B_3, \quad \text{yoki} \quad \alpha B_1 + \beta B_2 + \gamma B_3 = 0,$$

$$\alpha C_1 + \beta C_2 = -\gamma C_3 \quad \alpha C_1 + \beta C_2 + \gamma C_3 = 0.$$

tengliklarni qanoatlantiruvchi γ son topiladi.

Bu α, β, γ larga nisbatan algebraik chiziqli bir jinsli sistema va uning nolmas echimi mavjud bo'lishi uchun shu sistemaning determinanti nolga teng bo'lishi zarur va etarli, ya'ni

$$\begin{vmatrix} A_1 & A_2 & A_3 \\ B_1 & B_2 & B_3 \\ C_1 & C_2 & C_3 \end{vmatrix} = 0. \quad (30)$$

Shunday qilib, yuqorida ko'rsatilgan uch to'g'ri chiziq bir nuqtada kesishishi uchun (30) o'rinci bo'lishi va (29) determinantlardan kamida bittasi noldan farqli bo'lishi zarur va etarli.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

- 32. To'g'ri chiziqning umumiy tenglamasi?
- 33. To'g'ri chiziqning normal tenglamasi?
- 34. Uch to'g'ri chiziqning bir nuqtada kesishish sharti?

1.3.2-6. Blits-so'rov uchun savollar

70. To'g'ri chiziqning koordinata o'qlarga nisbatan tenglamasi?
71. Bir nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziqlar oilasi?
72. To'g'ri chiziqning burchak koeffisient tenglamasi?

1.3.2-8. Og'zaki so'rov uchun savollar

73. Nuqtadan to'g'ri chiziqgacha masofa?
74. Ikki to'g'ri chiziqning parallelilik sharti?
75. To'g'ri chiziqlarning perpendikulyarlik sharti?
76. Ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchak?

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- **takrorlash va mashqlar:** takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- **yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish:** yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- **ilmiy xarakterdagi ishlar:** muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Ilin V.A., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. – M: Nauka, 1998.
2. Kletenik D.V., Sbornik zadach po analiticheskoy geometrii.-M.: GITTL. 1986.
3. A.R.Artikov. Analitik geometriya. Uslubiy qo'llanma. Samarqand 2006.

Qo'shimcha

1. Bugrov Y.A.S., Nikolskiy S.M. Elementy lineynoy algebry i analiticheskoy geometrii. – M: Nauka, 1980.
2. Suberbiller O.N. Zadachi i uprajneniya po analiticheskoy geometrii.- M: 1931.
3. Gyunter N.M. i Kuzmin R.O. Sbornik zadach po visshey matematike. – M: 1958.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;

- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'yagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «←» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki to'g'ri deb o'yaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma'lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirot etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 15. Ellips, giperbola, parabola va uning kanonik tenglamalari

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Ellips tenglamasi.
2. Giperbola tenglamasi.
3. Parabola tenglamasi.
4. Elipsning qutb koordinatalar sistemasidagi tenglamasi.
5. Giperbolaning qutb koordinatalar sistemasidagi tenglamasi.
6. Parabolaning qutb koordinatalar sistemasidagi tenglamasi.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta'surotlar berish, Ikkinchи tartibli chiziqlar na faqat analitik geometriya balki matematikaning boshqa ko'pgina soxalarida ham muhim o'rinn tutadi.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Analitik geometriyaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiyligi holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi*: aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Vektorlar nazariyasini Analitik geometriya kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma'ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma'ruza matni; jadvallar, multimedya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma'rurasasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiyligi bosqichlarini xarakterlab berish va umumiyligi sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma'rurasasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yantuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini hamda baholash shakli va muddatlari aytildi
- Fan ma'rurasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiyligi sxemasini kengaytirib xarakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta'riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma'ruzalarining asosiy yo'nalichlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralar bilan ishlay olishligi;

• 1.2. Ma'ruzaning xronologik xaritasi

• 1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;

- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma'ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma'ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konsept qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati*: mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e'tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me'zonlari;
- *Talabalar faoliyati*: ishning tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishslash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma'ruza rejasi:

7. Ellips tenglamasi.
8. Giperbola tenglamasi.
9. Parobola tenglamasi.
10. Elipsning qutb koordinatalar sistemasidagi tenglamasi.
11. Giperbolaning qutb koordinatalar sistemasidagi tenglamasi.
12. Parabolaning qutb koordinatalar sistemasidagi tenglamasi.

Kalit so'zlar: Ellips tenglamasi, giperbola tenglamasi, parabola tenglamasi.

1.3.1. Ma'ruza matni

Chiziq ikkinchi darajali

$$Ax^2 + 2Bxy + Cy^2 + 2Dx + 2Ey + F = 0, \quad (15.1)$$

tenglama bilan berilgan bo'lsin. Bu erda A, B, C, D, E, F – berilgan haqiqiy sonlar. Bunda $A^2 + B^2 + C^2 \neq 0$, ya'ni A, B, C sonlar bir vaqtida nolga teng emas.

Bu chiziq ikkinchi tartibli chiziq deyiladi.

(15.1) tenglamani qanoatlantiruvchi koordinatalari haqiqiy bo'lgan (x, y) nuqtalar mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Bu holda, (15.1) tenglama mavhum chiziqni aniqlaydi. Masalan, mavhum aylana: $x^2 + y^2 = -1$.

(15.1) umumiy tenglamaning muhim xususiy hollarini ko'rib chiqamiz.

Ellips. Tekislikda

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (a \geq b > 0), \quad (15.2)$$

tenglama bilan aniqlangan chiziq *ellips* deyiladi. Bunda $a = b$ bo'lganda ellips markazi koordinata boshida va radiusi a ga teng bo'lgan aylanaga aylanadi.

$a > b$ va $c = \sqrt{a^2 - b^2}$ bo'lsin. Ox o'qda absissalari mos ravishda $x = -c$ va $x = c$ bo'lgan F_1 va F_2 nuqtalarni belgilaymiz. Bu ellipsning *fokuslari*.

(15.2) ellipsni shunday nuqtalarning geometrik o'rni sifatida aniqlash mumkinki, uning har bir nuqtasidan F_1, F_2 fokuslarga bo'lgan masofalar yig'indisi o'zgarmas $2a$ kattalikka teng.

Haqiqatan, agar ellipsning ixtiyoriy nuqtasini $M(x, y)$ bilan belgilasak,

$$\begin{aligned} \overline{MF_1} &= \sqrt{(x+c)^2 + y^2}, \quad \overline{MF_2} = \sqrt{(x-c)^2 + y^2}, \\ 2a &= \sqrt{(x+c)^2 + y^2} + \sqrt{(x-c)^2 + y^2} \end{aligned}$$

yoki

$$2a - \sqrt{(x+c)^2 + y^2} = \sqrt{(x-c)^2 + y^2},$$

bu erdan

$$\begin{aligned} 4a^2 + (x+c)^2 + y^2 - 4a\sqrt{(x+c)^2 + y^2} &= (x-c)^2 + y^2, \\ 4a^2 + 4cx &= 4a\sqrt{(x+c)^2 + y^2} \\ a^4 + 2a^2cx + c^2x^2 &= a^2(x^2 + 2cx + c^2 + y^2), \\ -b^2x^2 &= -a^2b^2 + a^2y^2, \\ \frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} &= 1. \end{aligned}$$

Agar (15.2) tenglamada x ni $-x$ bilan almashtirsak, u o'zgarmaydi – bu (15.2) ellips Oy o'qqa nisbatan simmetrik chiziq ekanligini bildiradi. Xuddi shunday (15.2) ellips Ox o'qqa nisbatan simmetrik, chunki uning tenglamasi y ni $-u$ bilan almashtirganda o'zgarmaydi. Demak, uning tenglamasini birinchi chorakda, ya'ni $x, y \geq 0$ bo'lganda o'rganish etarli. Ellipsning birinchi chorakda joylashgan qismi

$$y = \frac{b}{a} \sqrt{a^2 - x^2}, \quad 0 \leq x \leq a.$$

tenglama bilan aniqlanadi.

Bu tenglamadan ko'rinish turibdiki, ellips $(0, b)$ va $(a, 0)$ nuqtalardan o'tadi. Shu bilan birga, uning y ordinatasi $x \in [0, a]$ kesmada uzliksiz o'sganda, uzliksiz kamayadi.

Ellips chegaralangan chiziq. U markazi koordinata boshida, radiusi a ga teng bo'lgan aylanicha joylashadi, chunki ellipsning ixtiyoriy (x, y) nuqtasi uchun quyidagi tengsizlik o'rini:

$$x^2 + y^2 \leq a^2 \left(\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} \right) = a^2.$$


(15.2) tenglama ellipsning *kanonik* tenglamasi deyiladi. Ko'rinib turibdiki, (15.2) ellipsning koordinata o'qlari bilan kesishishidan hosil bo'lgan kesmalar uzunliklari $2a$ va $2b$ ga teng. $2a > 2b$ bo'lGANI uchun Ox o'q ellipsning *katta o'qi* deb, Oy esa *kichik o'qi* deb ataladi.

Ellips aylanani tekis qisish yordamida hosil qilinishi mumkin.

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1 \text{ aylanani ko'rib chiqamiz.}$$

Endi tekislikni Ox o'qga qarab qisamiz, ya'ni shunday almashtirish olamizki, bunda (x, y) koordinatali

nuqta $(x, \frac{b}{a}y)$ koordinatali



nuqtaga o'tadi. U holda, ko'rinib turibdiki, $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$ aylana $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$ ellipsga o'tadi.

Giperbola. Tekislikda

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (a>0, b>0), \quad (15.4)$$

tenglama bilan aniqlangan chiziq *giperbola* deyiladi.

$c = \sqrt{a^2 + b^2}$ bo'lsin. Ox o'qda abssissalari $x=-c$ va $x=c$ bo'lgan F_1 va F_2 nuqtalar bilan - (15.4) giperbolaning *fokuslarini* belgilaymiz.

(15.4) giperbolani shunday $M(x,y)$ nuqtalarning geometrik o'rnini sifatida aniqlash mumkinki, har bir $M(x,y)$ nuqtadan F_1 va F_2 fokuslargacha bo'lgan masofalarning farqi o'zgarmas $2a$ kattalikka ga teng bo'ladi.

Haqiqatan,

$$\begin{aligned} \overline{MF_1} - \overline{MF_2} &= \sqrt{(x+c)^2 + y^2} - \sqrt{(x-c)^2 + y^2} = 2a, \\ (x+c)^2 + y^2 &= (x-c)^2 + y^2 + 4a\sqrt{(x-c)^2 + y^2} + 4a^2, \\ 4cx - 4a^2 &= 4a\sqrt{(x-c)^2 + y^2}, \\ c^2x^2 - 2a^2cx + a^4 &= a^2(x^2 - 2cx + c^2) + a^2y^2, \\ (a^2+b^2)x^2 &= a^2x^2 + a^2b^2 + a^2y^2, \\ b^2x^2 - a^2y^2 &= a^2b^2, \end{aligned}$$

bu erdan (15.4) tenglama hosil bo'ladi.

Lekin bu erda giperbolaning faqatgina o'ng shoxasi hosil bo'ladi. Chap shoxasini hosil qilish uchun $\overline{MF_2} - \overline{MF_1} = 2a$ tenglikdan boshlash kerak.


Tenglamani ko'rinishiga qarab, (15.4) giperbola Ox va Oy o'qlarga nisbatan simmetrik ekanligini xulosa qilishimiz mumkin.

Giperbolaning birinchi chorakda joylashgan qismi tenglamasining ko'rinishi quyidagicha:

$$y = \frac{b}{a} \sqrt{x^2 - a^2} \quad (a \leq x < \infty) \quad (15.5)$$

Ko'rinib turibdiki, giperbola $(a, 0)$ nuqtadan o'tadi va x ning $[a, \infty)$ yarim intervalda o'sishi bilan y ordinata o'sadi va cheksizlikka intiladi.

Giperbola Ox o'qni kesib o'tgan $A(-a, 0)$ va $B(a, 0)$ nuqtalari uning *uchlari* deyiladi.



(15.5) tenglama bilan aniqlangan chiziqni $y = \frac{b}{a}x$ to'g'ri chiziq bilan solishtiramiz.

Giperbola

Ko'rish qiyin emaski,

$$\lim_{x \rightarrow +\infty} \left[\frac{b}{a}x - \frac{b}{a}\sqrt{x^2 - a^2} \right] = \lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{b}{a} \frac{a^2}{x + \sqrt{x^2 - a^2}} = 0$$

bo'ladi.

Bu esa $y = \frac{b}{a}x$ to'g'ri chiziq bu chiziqqa nisbatan asimptota ekanligini bildiradi. Giperbola o'qlarga nisbatan simmetrik ekanligidan $y = \pm \frac{b}{a}x$ to'g'ri chiziqlar (15.4) giperbolaning $x \rightarrow +\infty$ va $x \rightarrow -\infty$ dagi asimptotalari bo'ladi.

Parabola. Tekislikda

$$y^2 = 2px \quad (p > 0) \quad (15.6)$$

tenglama bilan aniqlangan chiziq *parabola* deyiladi. Ox o'qda $x = \frac{p}{2}$ abstsissali parabola *fokusi*

deb ataladigan F nuqtani belgilaymiz va parabola *direktrisasi* deb ataluvchi $x = -\frac{p}{2}$ to'g'ri chiziqni o'tkazamiz.

(15.6) parabolani shunday $M(x, y)$ nuqtalarning geometrik o'rni sifatida aniqlash mumkinki, har bir $M(x, y)$ nuqta ham fokusdan, ham direktrisadan bir xil masofada joylashadi. Haqiqatan,

$$(\overline{MF})^2 = (x - \frac{p}{2})^2 + y^2, \quad (\overline{MN})^2 = (x + \frac{p}{2})^2,$$

bu erda \overline{MN} - M nuqtadan direktrisagacha bo'lgan masofa, demak,

$$(x - \frac{p}{2})^2 + y^2 = (x + \frac{p}{2})^2, \quad -px + y^2 = px, \quad ya'ni \quad y^2 = 2px.$$

(15.6) tenglamadan ko'rini turibdiki, parabola Ox o'qga nisbatan simmetrik.

Uning yuqorigi yarmi quyidagi tenglamaga ega:


$$y = \sqrt{2px} \quad (0 \leq x < \infty)$$

bu erdan ko'rini turibdki, $x[0, \infty)$ yarim intervalni o'sib bosib o'tganda ordinata u ham 0 dan ∞

gacha o'sadi. SHu bilan birga $x \rightarrow \infty$ da $\frac{y}{x} = \sqrt{\frac{2p}{x}} \rightarrow 0$ bo'ladi. Bu erdan kelib chiqadiki, x ning

etarli katta

qiymatlarida parabola Ox o'qni saqlaydigan ixtiyoriy burchak ichiga tushadi. Bundan tashqari, bu erdan parabola asimptotaga ega emasligi kelib chiqadi.



Kesishuvchi to'g'ri chiziqlar jufti.

$$a^2 x^2 - b^2 y^2 = (ax - by)(ax + by) = 0 \quad (a > 0, b > 0) \quad (15.7)$$

tenglama ikkita kesishuvchi to'g'ri chiziqlarni aniqlaydi. Ko'rinish turibdiki, (15.7) tenglamani qanoatlantiruvchi (x, y) nuqta $ax - by = 0$, $ax + by = 0$ tenglamalardan birini yoki ikkalasini ham qanoatlantiradi.

Parallel va ustma-ust tushadigan to'g'ri chiziqlar jufti

$$x^2 - a^2 = 0 \quad (a \geq 0)$$

tenglama bilan aniqlanadi.

Agar $a \neq 0$ bo'lsa, ikki parallel $x - a = 0$ va $x + a = 0$ tenglamalar bilan aniqlangan to'g'ri chiziqlarga ega bo'lamiz. Agar $a = 0$ bo'lsa, $x^2 = 0$ tenglama ikkita ustma-ust tushadigan to'g'ri chiziqlarni (Oy o'q) aniqlaydi.

$$x^2 + y^2 = 0$$
 tenglama yagona nuqta – koordinata boshini aniqlaydi.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

35. Ikkinchi tartibli chiziqlar deb qanday ko'rinishdagi tenlamalarga aytildi?
36. Ellips deb nimaga autiladi?
37. Giperbola nima?
38. Parabola deb nimaga autiladi?

1.3.2-6. Blits-so'rov uchun savollar

77. Fokus bu nima?
78. Direktrissa nima?

1.3.2-B. Og'zaki so'rov uchun savollar

79. Ellipsning kanonik tenglamasi?
80. Giperbolaning kanonik tenglamasi?
81. Paraboloning kanonik tenglamasi?

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- **takrorlash va mashqlar:** takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- **yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish:** yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- **ilmiy xarakterdagи ishlар:** muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Ilin V.A., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. – M: Nauka, 1998.
2. Kletenik D.V., Sbornik zadach po analiticheskoy geometrii.-M.: GITTL. 1986.
3. A.R.Artikov. Analitik geometriya. Uslubiy qo'llanma. Samarqand 2006.

Qo'shimcha

1. Bugrov YA.S., Nikolskiy S.M. Elementy lineynoy algebry i analiticheskoy geometrii. – M: Nauka, 1980.
2. Suberbiller O.N. Zadachi i uprajneniya po analiticheskoy geometrii.- M: 1931.
3. Gyunter N.M. i Kuzmin R.O. Sbornik zadach po visshey matematike. – M: 1958.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki to'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma'lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 16. Konik kesimlar

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

13. Ikkinchchi tartibli chiziqning markazi.
14. Markaziy va nomarkaziy chiziqlar.
15. Ikkinchchi tartibli chiziqlarning urunmasi.
- 16. Ikkinchchi tartibli chiziqlarning diametri.**

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta'surotlar berish, Ikkinchchi tartibli chiziqlar na faqat analitik geometriya balki matematikaning boshqa ko'pgina soxalarida ham muhim o'rinni tutadi.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Analitik geometriyaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi*: aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Vektorlar nazariyasini Analitik geometriya kursni bir qismi sifatida tessavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qitish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimedya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma'rzasasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma'rzasasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini hamda baholash shakli va muddatlari aytildi
- Fan ma'rzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakerlab beradi;

- Fanning asosiy ta’riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma’ruzalarining asosiy yo’nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to’liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag’ulotlarni bajarishda o’rganilgan iboralar bilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma’ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O’qituvchining faoliyati:* tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o’ziga ishonch, aniqligi); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallari); ma’ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o’quv mashg’ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so’zlar, kategoriylar; internet saytlari va adabiyotlar ro’yhati; o’quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati:* o’quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko’rinish; o’quv materiallari va qo’llanmalar); ma’ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o’quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko’rish;
- *Shakillar, usular, uslublar:* instruktaj; frontal so’rov; mustahkamlovchi so’rov.

- 2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):**

- *O’qituvchining faoliyati:* mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o’tgan fanlar va mashg’ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma’ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, “Insert” usuli bilan belgilar qo’yishni taklif etadi; birinchi savol bo’yicha matn o’qiladi; qo’shimcha o’quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo’yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati:* yangi mavzuda doir oldingi mashg’ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; “Insert” usuli bilan belgilan o’qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o’zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar:* frontav so’rov blits-so’rov; aqliy hujum, “Insert” texnikasi.

- 3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)**

- *O’qituvchining faoliyati:* mnavzu bo’yicha hulosa qilish, talabalarning e’tiborlarini asosiylarda jalg qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o’tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o’zaro baholashning natijalarini chiqarish; o’quv mashg’ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko’rsatgichlari va me’zonlari;
- *Talabalar faoliyati:* ishning tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo’llash; o’zaro baholashni o’tkazish, yo’l qo’yilgan hatolar bo’yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar:* guruhlarda ishslash, kartochkalarda topshiriqlar.

- 1.3. O’quv-metodik materiallar**

Ma’ruza rejasi:

1. Ikkinchli tartibli chiziqning markazi.
2. Markaziy va nomarkaziy chiziqlar.
3. Ikkinchli tartibli chiziqlarning urunmasi.
4. Ikkinchli tartibli chiziqlarning diametri.

Kalit so’zlar: Ellips, giporbola, parabola, ikkinchi tartibli chiziqlar, xarakteristik tenglama, ikkinchi tartibli chiziq urunmasi, ikkinchi tartibli chiziq diametri.

1.3.1. Ma’ruza matni

Tayanch iboralar: ikkinchi tartibli chiziqlar, xarakteristik tenglama, ikkinchi

tartibli chiziq urunmasi, ikkinchi tartibli chiziq diametri.

Shunday to'g'ri burchakli (yangi) koordinat sistemasi mavjudligini isbotlaymizki, unda (7.1) tenglama bilan aniqlangan mavhum bo'lmanan chiziq yuqorida sanab o'tilgan kanonik tenglamalardan biriga ega bo'ladi. Xususiy holda, $AC - B^2 > 0$ da (7.1) chiziq ellips, nuqta yoki mavhum chiziq, $AC - B^2 < 0$ da (7.1) giperbola yoki kesishuvchi to'g'ri chiziqlar jufti, $AS - V^2 = 0$ da (7.1) parabola, parallel yoki ustma-ust tushuvchi to'g'ri chiziqlar jufti yoki mavhum chiziq bo'ladi.

Shunday qilib, (7.1) tenglama berilgan bo'lsin. Bu erda $A^2 + B^2 + C^2 \neq 0$. Umumiylikni yo'qotmasdan, $A \geq 0, A \geq C, B \geq 0$ deb hisoblaymiz.

Bu holga har doim $x = \eta, y = \xi$ yoki $x = -\xi, y = \eta$ ortogonal almashtirish yordamida va (7.1) tenglamaning chap va o'ng tomonlarini -1 ga ko'paytirib kelish mumkin.

Avval $B = 0, A \geq C > 0$ deb faraz qilamiz. U holda, (7.1) tenglamani

$$A(x + \frac{D}{A})^2 + C(y + \frac{E}{C})^2 + F - \frac{E^2}{C} - \frac{D^2}{A} = 0$$

ko'rinishda yozish mumkin.

$$\begin{aligned} \xi = x + \frac{D}{A}, \eta = y + \frac{E}{C} \text{ parallel ko'chirishdan keyin} \\ A\xi^2 + C\eta^2 = \frac{E^2}{C} + \frac{D^2}{A} - F \end{aligned} \quad (8.1)$$

ko'rinishdagi tenglamaga ega bo'lamiz.

$\frac{E^2}{C} + \frac{D^2}{A} - F > 0$ bo'lsa, (8.1) tenglama a va b yarim o'qlarga ega bo'lган ellips tenglamasini ifodalaydi. Bu erda

$$a^2 = \frac{\left(\frac{E^2}{C} + \frac{D^2}{A} - F\right)}{A}, b^2 = \frac{\frac{E^2}{C} + \frac{D^2}{A} - F}{C}.$$

$\frac{E^2}{C} + \frac{D^2}{A} - F = 0$ bo'lsa, nuqtani, $\frac{E^2}{C} + \frac{D^2}{A} - F < 0$ bo'lsa, mavhum chiziqni hosil qilamiz. Ko'rsatib o'tamizki, $B = 0, A \geq C > 0$ da $AC - B^2 = AB > 0$ ga ega bo'lamiz.

$C = 0, A > 0$ bo'lsin. U holda, (7.1) tenglamani

$$A(x + \frac{D}{A})^2 + Ey + F - \frac{D^2}{A} = 0$$

ko'rinishda yozish mumkin.

$$\begin{aligned} E \neq 0 \text{ bo'lsa, } \xi = x + \frac{D}{A}, \eta = y + \frac{F}{E} - \frac{D^2}{AE} \text{ parallel ko'chirishdan keyin} \\ A\xi^2 + E\eta = 0, \end{aligned}$$

ko'rinishdagi parabolani ifodalovchi tenglamani hosil qilamiz. Bu erda $p = -\frac{E}{2A}$.

$E = 0$ bo'lsa, $\frac{D^2}{A} - F$ sonning ishorasiga qarab yo parallel to'g'ri chiziqlar juftiga yo mavhum chiziqga ega bo'lamiz. Ko'rsatib o'tamizki, bu erda: $AC + B^2 = 0$.

Keyin agar $C < 0, A > 0$ bo'lsa, (7.1) tenglamani

$$A(x + \frac{D}{A})^2 - |C|(y - \frac{E}{|C|})^2 + F + \frac{E^2}{|C|} - \frac{D^2}{A} = 0$$

ko'rinishda yozish mumkin.

$\xi = x + \frac{D}{A}$, $\eta = y - \frac{E}{|C|}$ parallel ko'chirishdan keyin agar $F + \frac{E^2}{|C|} - \frac{D^2}{A} \neq 0$ bo'lsa,

giperbola tenglamasini, $F + \frac{E^2}{|C|} - \frac{D^2}{|C|} = 0$ bo'lsa, kesishuvchi to'g'ri chiziqlar juftini hosil qilamiz.

Ko'rsatib o'tamizki, bu holda $AC - B^2 = AC < 0$.

$A = 0, C < 0$ bo'lgan hol $C = 0, A > C$ bo'lgan holga o'xshash.

